

IJTIMOYIY TARMOQLARLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI VA OQIBATLARI

Muhamadiyev Husan Hamroqulovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali katta o'qituvchisi

Karoboyev Suxrob Mustafakulovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti o'qituvchisi

husanmuhamadiyev0@gmail.com

Annotatsiya. “Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Asosan yoshlar bu platformalarni yaqin kundalik hayotdagi yangiliklar olish, fikr almashish, ta'lim va biznes faoliyatini yuritish uchun ishlatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqdagi ko'radigan qisqa formatdagi video va reklama doimiy ravishda yoshlar e'tibor-markazini o'ziga tortadi, bu esa kognitiv va psixologik jarayonlarga turli yo'llar bilan ta'sir qilishi mumkin. Ushbu maqola ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga bo'lgan ta'sirini tadqiq qiladi: kognitiv (e'tibor, multitasking), psixologik (ruhiy holat, xavfsizlik), ijtimoiy-siyosiy hatarlar va xavfsizlik choralari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni ko'rib chiqadi, shuningdek munosabatlar, ta'lim va siyosiy ongga ta'sirini tahlil qilinib o'ziga xos echimlar berilgan.”

Kalit so'zlar: internet, ijtimoiy tarmoq, axborot, virtual olam, kontent

THE IMPACT AND CONSEQUENCES OF SOCIAL NETWORKS ON YOUTH CONSCIOUSNESS

Abstract. Today, social networks are becoming an integral part of human life. Young people primarily use these platforms to access news, exchange ideas, and engage in educational and business activities. At the same time, short-form videos and advertisements on social media constantly capture the attention of youth, potentially affecting cognitive and psychological processes in various ways. This article examines the impact of social networks on the lives of young people by reviewing existing research on cognitive (attention, multitasking), psychological (mood, security), and socio-political risks. Furthermore, it analyzes the impact on relationships, education, and political consciousness, providing specific solutions and security measures.

Keywords: internet, social network, information, virtual world, youth consciousness.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА СОЗНАНИЕ МОЛОДЕЖИ И ИХ ПОСЛЕДСТВИЯ

Аннотация. В настоящее время социальные сети становятся

неотъемлемой частью жизни человека. Молодежь в основном использует эти платформы для получения новостей, обмена мнениями, обучения и ведения предпринимательской деятельности. Вместе с тем короткие видеоролики и рекламный контент в социальных сетях постоянно привлекают внимание молодежи, что может по-разному воздействовать на когнитивные и психологические процессы. В данной статье исследуется влияние социальных сетей на жизнь молодежи: рассматриваются существующие исследования по когнитивным аспектам (внимание, многозадачность), психологическому состоянию, вопросам безопасности, а также социально-политическим рискам. Кроме того, анализируется влияние социальных сетей на межличностные отношения, образование и политическое сознание, а также предлагаются соответствующие решения.

Ключевые слова: интернет, социальные сети, информация, виртуальная среда, контент.

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmashini namoyon etayotir. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqyea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'plab imkoniyatlarni bermogda. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqyea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir.


Internet avvaliga ilmiy izlanishlar va harbiy maqsadlar uchun yaratilgan edi, hozirgi kunda esa ijtimoiy tarmoqlardan ko'ngil ochar videolar, muloqol, do'stlar orttirish, ta'lim, biznes kabi sohalarda faol foydalanilmoqda.

Ilmiy izlanishlar, olimlarning yangiliklardan xabardor bo'lishi uchun yaratilgan tarmoq bugungi kunda ochiqchasiga faqatgina ko'ngilochar tarmoqgina bo'lib qolmadimi? Hozirgi kunda milliard foydalanuvchisi bor ijtimoiy tarmoqlar instagram, facebook, tik tok, twitter, You tube yoshlarga qanday ta'sir qilmoqda? Ular Internet va ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri foydalanishyaptimi? kabi muammoli savollar psixolog, sotsiolog, faylasuf va boshqalarni qiziqtirmogda.

Hozirda 16-34 yoshdagi aholi orasida 50-60% asosan ijtimoiy tarmoqlardan (Facebook, Instagram, tik tok, twitter, You Tube) foydalanishadi, bu ularga nima beradi!

O'tkazilgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki tarmoqlardan foydalanish asosan ko'ngilochar kantentlar va qisqa roliklardan iborat. Bundan qisqa 30 sekund, 1 daqiqalik har xil mavzudagi roliklar odamni qiziqtirib o'ziga jalb qiladi va bunga qaramlikka olib keladi, e'tibor qilinishi kerak bo'lgan joyi ham aslida shu.

Hozirgi kunda internetdagi ijtimoiy tarmoq, qidiruv tizimlari va axborot saytlarning foydalanish va ta'sir doirasini 2018-2021 yillardagi statistikasiga nazar tashlasak quyidagi diagramma hosil bo'ladi



Diagrammadan ko'rinib turibdiki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish keskin oshib bormoqda. Bu esa insonlarni ijtimoiy hayotdan begonalashib ijtimoiy tarmoqlardagi virtual olamga berilib ketmoqda va hatto uning qurboniga aylanmoqda. Shu sababdan "...ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish"⁶ zarur.

2011 yilda Xitoyda internetga o'tirib qolgan yoshlar miyyasining tuzilishida o'zgarish borligi, psixologik, akademik va samaradorlik darajasi pasayib ketgani haqidagi xulosani olishadi. Rostan ham atrofdagi yoshlarni kuzatsangiz ularda xotira pasayishi, eslab qolish qobiliyatining foizlari tushayotganini, asabiylikni kuzatishingiz mumkin.

2009 yil Stenford universitetida o'tkazilgan (cognitive control in media multi-tasking) tajribada ham "aqliy susayish va tez chalg'ishga moyillik kuzatilgan"

Germanyada 2019 yilgi (Accelerating dynamics of collective attention)tajriba ham har xil katektga to'la kontentni ko'rish (Attention span), ya'ni e'tibor doirasini toraytirishi holatidagi (past saviyadagi)natijani olishgan, umuman olganda bunday tajribalar juda ko'p Texas, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Kanada kabi mamlakatlarda o'tkazilgan va bu tajribalarga kamida 14, 9, 5 yildan oshgan. Shunca yildan beri bu kantentlar qanchalik sayozlashdi ekan.

Har holda bu kontentlarning saviyasi o'smagani aniq! Hozirgi kunda shu kantentlarni yaratuvchi va ommaga taqdim etuvchi, o'zini blogger deb atovchi shaxslar yaxshigina daromad evaziga yoshlar onggiga qanday ta'sir o'tkazmoqda. Kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, minglab bloggerlarning ichida eng mashhur millionlab obunachilari bor bloggerlarda ya'ni ko'proq yoshlar jamoasiga ega bloggerlarda asosiy

6 Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qarori

mavzu ichkilik, benikoh munosabatlar, chekish, zino, oila degan maskanni o'yindek ko'rsatish, haqiqiy erkakni ishida deya yomon illatlarni tadbqiq qilish ko'proq. Siz o'ylashingiz mumkin oilada tarbiyasi yaxshi bo'lsa bu ta'sir qilmaydi deb, shuni unutmasligimiz kerakki bir qopga solingan qurtlagan olmalar ichiga butun chiroyli olmani solsangiz vaqt o'tib uni ham yaroqsiz holga kelib qurtlaganini ko'rasiz.

Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarning yuqorida keltirilgan Yoshlar ongiga salbiy ta'sirlaridan himoyalaniish uchun avvalo ularda raqamli ong va ma'lumotlar oqimini tanqidiy qabul qilish: manba ishonchliligini tekshirish, bir nechta manbani solishtirish madaniyatini shakllantirish lozim. Har bir Ijtimoiy tarmoq kontentni boshqarish: xavfsiz sozlamalar (private/kim ko'rishi, yorumlarni bloklash, buzuvchi foydalanuvchilarni bloklash/kuzatuv), mos kontent oqimini tanlash. Shu bilan birga yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish ya'ni, uyqu rejimini saqlash, offlayn faoliyatlarni (sport, ko'ngilochar tadbirlar, o'qish) ko'paytirish lozim.

Umuman olganda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun imkoniyatlar ham, xavflar ham yaratadi. Ularni ongli, xavfsiz va ma'naviy sog'lom foydalanish yo'llari yo'lga qo'yilsa, bilim, ijod, ijtimoiy faollik kabi ijobiy tomonlar ko'proq foyda beradi. Ota-onalar, o'qituvchilar va yoshi kattalar yoshlar uchun xavfsiz muhit yaratib, ularga kriptiv fikr, axborot xavfsizligi bo'yicha ko'nikmalarni o'rgatishi muhim.

Xulosa qilib aytganda, Yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «...biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasi bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma'naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o'z xalqiga, yurtiga bo'lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son Qarori
2. Shermuxamedova N. Texnika falsafasi (o'quv-uslubiy majmua) –T.: 2019.
3. Axborot asrida ta'lim-tarbiya / – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Falsafa ensiklopedik lug'at. M.Abdullayeva tahriri ostida –T.: 2010.
5. Постноклассик фалсафа ва фанлар методологияси муаммолари. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. 141 – б
6. Носов Н.А.Виртуальная психология.- М.: Аграф. 2000.
7. <http://www.virtualistika.ru/vip7ap.html>